


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="197 400 591 612">Orolbo‘yi tuproq-iqlim sharoitiga mos o‘simliklar resurslarining tabiiy Milliy bazasini yaratish</p> 	<p data-bbox="703 357 1055 387">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="703 395 1066 426">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <p data-bbox="633 434 2058 539">Orolbo‘yining sho‘rlangan va qurg‘oqchil hududlarida chidamlilik ko‘rsatgan yovvoyi va madaniy o‘simlik turlarining to‘liq inventarizatsiyasi o‘tkaziladi hamda ularning Milliy raqamli ma‘lumotlar bazasi (bilimlar bazasi) shakllantiriladi.</p> <p data-bbox="633 547 2058 652">Mintaqa sharoitiga eng moslashuvchan o‘simlik turlarining bioekologik xususiyatlari, tuzga chidamlilik darajasi va genetik kodlari aniqlanib, har bir tur uchun alohida ilmiy pasportlar ishlab chiqiladi.</p> <p data-bbox="633 660 2058 766">Tuproq tarkibidagi tuz miqdorini kamaytirish va unumdorlikni oshirish xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar (masalan, saksovul, qandim, cherkez va boshqa galofitlar) seleksiyasi amalga oshiriladi hamda ularni ko‘paytirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalar yaratiladi.</p> <p data-bbox="633 774 2058 879">Orolning qurigan tubi va atrof hududlarining tuproq tarkibidan kelib chiqib, qaysi hududda qanday o‘simlik jamoalarini barpo etish kerakligini ko‘rsatuvchi geofazoviy (GIS) xaritalar va modellar ishlab chiqiladi</p> <p data-bbox="633 887 2058 992">aqat ekologik emas, balki farmatsevtika, chorvachilik va oziq-ovqat sanoati uchun muhim bo‘lgan (dorivor va ozuqabop) o‘simliklarni madaniylashtirish va ulardan sanoat miqyosida foydalanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar tayyorlanadi.</p> <p data-bbox="633 1000 2058 1106">Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="633 1114 2058 1254">Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="633 1262 2058 1329">Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>